QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
FILOLOGIYA
PHILOLOGY
https://doi.org/10.70728/b.series.fil.v08.i10.047

UO‘K 821.111(73).09

MELVILLDAN FOLKNERGACHA: AMERIKA ADABIYOTIDA NEOMIFOLOGIZMNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA POETIK VAZIFALARI (KORPUS TAHLILI ASOSIDA)

Kadirova Nargiza Arifovna
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti dotsenti, PhD
n.kadirova@tiiame.uz

Annotatsiya Maqolada Amerika badiiy adabiyotida neomifologizmning genezisi va poetik vazifalari beshta yirik matn: G.Melvillning “Mobi Dik”, T.S.Eliotning “Bepoyon sahro”, F.S.Fitsjeraldning “Buyuk Getsbi”, E.Xemingueyning “Quyosh baribir chiqadi” va U.Folknerning “Shovqin va g‘azab” asarlari misolida o‘rganiladi. Mifologemalar to‘rt leksik-semantik guruhga (Bibliya, antik, Grail/hosildorlik kulti, arxetipik tabiat obrazlari) ajratilib, kontekstual tahlil o‘tkazildi. Natijalar neomifologizmning Amerika adabiyotida besh bosqichli genezisini ko‘rsatadi. Mazkur maqolada “mif→transformatsiya→poetik funksiya” jadvali ishlab chiqilgan bo‘lib, neomifologizmning Amerika adabiyotidagi asosiy poetik vazifalari (xronotopni tashkil etish, qahramon arxetipini yaratish, kinoyaviy demifologizatsiya, kompozitsion qolip va aksiologik baholash) aniqlangan.

Kalit so‘zlar: neomifologizm, mifologema, mifopoetika, Amerika adabiyoti, modernizm, korpus tahlili, Melvill, Eliot, Fitsjerald, Xeminguey, Folkner.

Аннотация В статье исследуются генезис и поэтические функции неомифологизма в американской литературе на материале пяти ключевых текстов: «Моби Дик» Г.Мелвилла, «Бесплодная земля» Т.С.Элиота, «Великий Гэтсби» Ф.С.Фицджеральда, «И восходит солнце» Э.Хемингуэя и «Шум и ярость» У.Фолкнера. Мифологемы распределены по четырём лексико-семантическим группам (библейские, античные, Грааль/культ плодородия, архетипические образы природы) и проведён контекстуальный (конкордансный) анализ. Результаты показывают пятиступенчатый генезис неомифологизма в американской литературе. Разработана таблица «миф→трансформация→поэтическая функция» и выделены основные поэтические функции неомифологизма (организация хронотопа, создание архетипа героя, ироническая демифологизация, композиционная рамка, аксиологическая оценка).

Ключевые слова: неомифологизм, мифологема, мифопоэтика, американская литература, модернизм, корпусный анализ, Мелвилл, Элиот, Фицджеральд, Хемингуэй, Фолкнер.

Abstract The article examines the genesis and poetic functions of neo-mythologism in American literature on the basis of five key texts: Herman Melville’s “Moby-Dick”, T.S.Eliot’s “The Waste Land”, F.Scott Fitzgerald’s “The Great Gatsby”, Ernest Hemingway’s “The Sun Also Rises” and William Faulkner’s “The Sound and the Fury”. Mythologemes were grouped into four lexical-semantic classes (biblical, classical, Grail/fertility cult, archetypal nature imagery) and a contextual (concordance) analysis was performed. The results reveal a five-stage genesis of neo-mythologism in American literature. A “myth→transformation→poetic function” table is proposed and the main poetic functions of neo-mythologism (chronotope organisation, hero archetype, ironic demythologisation, compositional frame and axiological evaluation) are identified.

Keywords: neo-mythologism, mythologeme, mythopoetics, American literature, modernism, corpus analysis, Melville, Eliot, Fitzgerald, Hemingway, Faulkner.

KIRISH

XX asr jahon adabiyotshunosligida mif va adabiyot munosabati eng ko‘p muhokama qilingan masalalardan biri bo‘lib keldi. E.M.Meletinskiy ta’biri bilan aytganda, XX asr adabiyoti mifga “qayta murojaat” qilgan davr bo‘lib, bu hodisa “neomifologizm” yoki “mifologizm” atamasi bilan ifodalanadi [1]. Neomifologizm deganda, odatda, zamonaviy muallifning an’anaviy mif (Bibliya, antik, folklor) syujetlari, obrazlari va motivlarini ongli ravishda badiiy matn tuzilmasiga kiritishi, ularni yangi mazmun bilan to‘ldirishi yoki ularga kinoyaviy munosabat bildirishi tushuniladi. Yu.M.Lotman, Z.G.Mints va E.M.Meletinskiy mifning adabiyotga ta’sirini uch tipga ajratadi: mifning syujet manbai sifatida qo‘llanishi, mif modelida yangi “muallif mifi”ni yaratish va mifologik tafakkurning badiiy tafakkur bilan uyg‘unlashuvi [10].

AQSh milliy adabiyoti nisbatan yosh bo‘lgani uchun u o‘z “asos mifi”ni (Yangi Adam, “Amerika orzusi”) adabiy vositalar bilan qurishga majbur bo‘ldi. XX asr boshida aynan Amerika mualliflari T.S.Eliot va keyinroq U.Folkner modernizmning “mifologik metodi”ni nazariy jihatdan asosladi va amalda qo‘lladi. Eliot 1923-yilda Joys “Uliss”i haqida yozgan taqrizida mifni “zamonaviylik va antiklik o‘rtasida doimiy parallel” o‘rnatish usuli sifatida ta’rifladi va uni “hozirgi tarixning bepoyon befoydalik va anarxiya manzarasini nazorat qilish, tartibga solish” vositasi deb atadi [2].

Shu bilan birga, Amerika neomifologizmi genezisini faqat XX asr modernizmi bilan boshlash metodologik jihatdan noto‘g‘ri bo‘lgan bo‘lar edi: Bibliya mifologemalarini badiiy matnning strukturaviy asosiga aylantirish an’anasi XIX asr o‘rtalarida, avvalo, G.Melvill ijodida shakllangan edi [11]. Shuning uchun mazkur tadqiqotda genezis masalasi diaxronik ya’ni, 1851-yildan 1929-yillar kesimda ko‘rib chiqiladi.

Amerika adabiyotida neomifologizmning shakllanish bosqichlarini aniqlash va har bir bosqichda mifologemalarning poetik vazifasini matn ma’lumotlari asosida tavsiflash mazkur

maqolada maqsad qilib belgilangan. Ushbu maqsaddan quyidagi vazifalar kelib chiqadi: 1) tanlangan beshta asar bo‘yicha mifologemalarning to‘rt leksik-semantik guruh kesimida chastotasini hisoblash; 2) har bir asarda mif transformatsiyasining ustuvor mexanizmini kontekstual tahlil asosida aniqlash; 3) “mif → transformatsiya → poetik funksiya” tipologik jadvalini ishlab chiqish; 4) olingan natijalarni neomifologizm nazariyasi nuqtayi nazaridan sharhlash.

ADABIYOTLAR SHARHI

Neomifologizmning nazariy asoslari XX asrning birinchi yarmida antropologiya va adabiyotshunoslik tutashuvida shakllandi. J.Frezerning “Oltin shox” asari hosildorlik kultlari, o‘layotgan va qayta tirilayotgan xudo haqidagi mifning universal tuzilmasini tavsiflab, modernist mualliflar uchun bevosita manba bo‘lib xizmat qildi [4]. J.L.Uestonning “Marosimdan romansga” kitobi Grail afsonasini qadimgi hosildorlik marosimlari bilan bog‘ladi; T.S.Eliot “Bepoyon sahro” izohlarida poemaning “rejasi va ramziy tizimining katta qismi” aynan shu kitobdan olinganini ochiq tan olgan [3; 21].

Nazariy jihatdan ikkinchi to‘lqin N.Fray va J.Kempbell nomi bilan bog‘liq. N.Fray “Tanqid anatomiyasi”da adabiyotni mifning “ko‘chirilgan” shakllari tizimi sifatida talqin qildi va barcha adabiy janrlarni to‘rt mifos (komediya, romans, tragediya, kinoya) doirasida tasnifladi [5]. J.Kempbell “Ming yuzli qahramon”da “monomif” qahramonning chaqiriq, sinov va qaytish bosqichlaridan iborat universal yo‘li, konsepsiyasini ilgari surdi [6]. M.Eliade mifni “muqaddas tarix” sifatida ta’riflab, zamonaviy adabiyot mifologik vaqtning siklik tabiatini qayta tiklash istagi bilan yashayotganini qayd etdi [7].

Strukturalistik-semiotik yondashuv R.Bart “Mifologiyalar” asarida mifni “ikkilamchi semiologik tizim” sifatida talqin qilib, zamonaviy madaniyat o‘zining ijtimoiy miflarini qanday ishlab chiqarishini ko‘rsatdi [8]. Rus adabiyotshunosligida E.M.Meletinskiyning “Mif poetikasi” asari XX asr romani (Joys, Mann, Kafka) misolida mifologizmni “XX asr adabiyotining xarakterli hodisasi” sifatida tizimli tahlil qildi va mifning badiiy matnda syujet, kompozitsiya va obraz darajasida qo‘llanish usullarini belgiladi [1]. J.J.Uayt “Zamonaviy romanda mifologiya” monografiyasida “prefigurativ texnika” tushunchasini kiritdi: mif zamonaviy syujetni “oldindan belgilovchi” (prefigure) namuna sifatida qo‘llanadi, o‘quvchi esa ikki qatlamni muqoyasa qilib o‘qiydi [9].

Amerika mualliflari bo‘yicha mifopoetik tadqiqotlar ham boy an’anaga ega. N.Rayt “Melvillning Bibliyadan foydalanishi” asarida “Mobi Dik”dagi Bibliya ismlari va motivlari tizimini batafsil tavsifladi [11]; K.Beyker Xeminguey poetikasida ritual va “mif darajasidagi haqiqat”ning rolini ko‘rsatdi [12]; K.Bruks Folkner romanlarida Bibliya va janubiy folklor sintezini tahlil qildi [13]. R.Gualberto Valverde so‘nggi monografiyasida “bepoyon sahro mifi”ni modernizmning markaziy mifologemasi sifatida ko‘rib, uni Fitsjeraldning “Buyuk Getsbi” asariga tatbiq etadi [19].

I.V.Kuznetsov modernizm neomifologizmi (mifning substansional talqini) bilan postmodernizm mifologizmi (mifning sof shakliy, ifoda vositasi sifatida qo‘llanishi) o‘rtasidagi farqni asoslaydi [14]. Shimoliy Kavkaz romani materialida K.N.Paranuk va hammualliflar neomifologizmning uch mexanizmini yangi mif yaratish, remifologizatsiya va

demifologizatsiya (parodiya, ironiya, antimif) ajratadi [15]. Qozoq adabiyotida A.A.Maulenov va D.Qalyaqpar neomifologik tendensiyani milliy xotirani tiklash vositasi sifatida talqin qiladi [16]. O‘zbek adabiyotshunosligida D.R.Pardayeva mifopoetikaning milliy adabiyotdagi ildizlari va an’analarini tadqiq etgan [17], U.T.Djalilova esa mifologemalarning o‘zbek asarlaridagi talqini va tarjimada aks etishini ko‘rib chiqqan [18].

Mazkur maqolada biz Amerika adabiyoti materialida genezisning diaxronik bosqichlarini yaxlit ko‘rsatuvchi va miqdoriy korpus ma’lumotlariga tayanuvchi izlanishlar olib borishga harakat qildik.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot korpusi Amerika adabiyotining beshta asaridan iborat (1-jadval). Asarlarni tanlashda uch mezonga amal qilindi: 1) asar neomifologizm genezisining alohida bosqichini ifodalashi; 2) muallif mifologik materialga murojaat qilgani adabiyotshunoslikda e’tirof etilgani; 3) asarning to‘liq matni ochiq nashrda mavjud bo‘lishi. Barcha matnlar Project Gutenberg elektron nashrlaridan olindi [20–24]. Keyingi bosqich (J. Apdayk «Kentavr», 1963; T. Morrison «Sevgili», 1987) asarlari mualliflik huquqi bilan himoyalangani sababli miqdoriy tahlilga kiritilmadi va faqat muhokama qismida ikkilamchi manbalar asosida tilga olinadi [25; 26].

1-jadval. Tadqiqot korpusining tarkibi

№	Muallif, asar (nashr yili)	Janr
1.	G. Melvill. Moby-Dick; or, The Whale (1851)	roman
2.	T. S. Eliot. The Waste Land (1922)	poema (izohlar bilan)
3.	F. S. Fitsjerald. The Great Gatsby (1925)	roman
4.	E. Xeminguey. The Sun Also Rises (1926)	roman
5.	U. Folkner. The Sound and the Fury (1929)	roman
6.	Jami	

Metodlar. Tadqiqotda korpus-lingvistik, kontekstual (konkordans) va qiyosiy-tipologik metodlar uyg‘unlashtirildi. Masalan, birinchi bosqichda mifologemalarning leksikoni tuzildi. Leksikon to‘rt guruhga bo‘lingan:

1. Bibliya mifologemalari – 28 atoqli ot (God, Christ, Jonah, Elijah, Ishmael, Ahab, Easter, Leviathan va h.k.) va 30 turdosh ot (prophet, resurrection, sin, heaven, hell, church, lamb va h.k.).

2. Antik (yunon-rim) mifologemalar – 48 atoqli ot (Prometheus, Narcissus, Tiresias, Jason, Perseus va h.k.) va 10 turdosh ot (fate, fury, nymph, labyrinth va h.k.).

3. Hosildorlik kulti mifologemalari – 11 atoqli ot (Grail, Fisher, Weston, Tarot, Phlebas va h.k.) va 9 turdosh ot (rain, drought, desert, rock, dry va h.k.).

4. Arxetipik tabiat obrazlari – 29 turdosh ot (sea, water, fire, sun, moon, blood, bull, whale, shadow, death va h.k.).

Bundan tashqari, har bir asar uchun “manba mif → transformatsiya mexanizmi → poetik funksiya” zanjiri aniqlanib, tipologik jadval shaklida umumlashtirildi.

Kontekstual tahlil natijalariga ko‘ra, G.Melvillning *“Mobi Dik”* romanida mif, avvalo, atoqli otlar ya’ni ismlar orqali kiritiladi. Rivoyatchi o‘zini birinchi jumladayoq Bibliyadagi surgun qilingan o‘g‘il ismi bilan tanishtiradi (“Call me Ishmael”, 1-bob); kemaning kapitani Isroilning gunohkor shohi Axav ismini olgan (*Ahab* – 511 marta, romandagi eng ko‘p ishlatilgan mifologema) va u haqda “ulug‘, xudosiz, xudoga o‘xshash odam” (16-bob) deyiladi; kemaga chiqish oldidan qahramonlarni *Elijah* (“Payg‘ambar” deb nomlangan 19-bob) ogohlantiradi; ota Mepplning va’zi (9-bob) butunlay Yunus payg‘ambar kitobiga bag‘ishlangan (*Jonah* 85 marta), kit esa *Leviathan* nomi bilan 64 marta ataladi. Antik mifologemalar: 1-bobda Narsiss mifi suvga qarashning o‘zini anglash ramzi sifatida talqin qilinadi, 44-bobda Axav “o‘z fikri bilan o‘zida mavjudot yaratgan Prometey”ga qiyoslanadi, 28- va 55-boblarda Persey obrazi kit bilan kurashning arxetipi sifatida keladi. Shunday qilib, Melvillda mif nominativ (ism beruvchi) vazifani bajaradi va o‘quvchini prefigurativ o‘qishga Axavning taqdirini Bibliya shohi taqdiri fonida ko‘rishga undaydi.

T.S.Eliotning *“Bepoyon sahro”* poemasida mif leksik emas, strukturaviy qatlamga ko‘chadi. Bibliya va antik ismlar kam (jami 14 va 10 marta), biroq hosildorlik mifologemalari ko‘proq ishlatilgan. Muallif izohlari “sarlavha, reja va ramziy tizimning katta qismi” J.L.Ueston kitobidan olinganini ochiq e’lon qiladi. Tarot kartasidagi “Osilgan odam” (I qism, 55-satr) Frezerning “osilgan xudo”si bilan bog‘lanadi. Tiresiy (III qism, 218-satr: “I Tiresias, though blind, throbbing between two lives”) poemaning barcha personajlarini birlashtiruvchi ko‘zga aylanadi; “Suvda o‘lim” (IV qism) Finikiyalik Flebas obrazida o‘layotgan-tirilayotgan xudo mifini beradi; V qismda Baliqchi shoh qirg‘oqda o‘tirgan holda tasvirlanadi. Bu yerda mif “parallel” (Eliotning 1923-yilgi ta’rifi) sifatida ishlaydi: zamonaviy London hosildorlik marosimi buzilgan “bepoyon sahro” sifatida o‘qiladi [2; 3].

F.S.Fitsjeraldning *“Buyuk Getsbi”* romanida korpusdagi eng kam leksemalar ishlatilgan bo‘lib, biroq mifologemalar ko‘p qo‘llanilgan. VI bobda rivoyatchi Getsbi “o‘zining Aflotuncha tasavvuridan tug‘ilgan” va “Xudoning o‘g‘li” (*a son of God*) ekanini, “Otasining ishi bilan mashg‘ul bo‘lishi” kerakligini aytadi, bu Luqo Injilidagi (2:49) formulaning ironik qayta yozilishi; VIII bobda Getsbining Deyziga intilishi “Grailga ergashish” (*the following of a grail*) deb nomlanadi; II bobdagi “kul vodiysi” (*valley of ashes*) Eliot poemasining bepoyon sahrosiga bevosita ishora bo‘lib, uning ustida “doktor T.J.Eklberg ko‘zlari” – yuzi yo‘q, faqat ko‘zi qolgan “o‘lgan xudo” – turadi; IX bobdagi yashil chiroq va «oqimga qarshi suzayotgan qayiqlar» obrazi mifni milliy “Amerika orzusi” darajasiga ko‘taradi. Fitsjeraldda mif latent: u ismlarda emas, metaforik “tugun”larda jamlangan va demifologizatsiya (orzuning yolg‘onligini fosh qilish) vazifasini bajaradi [19].

E.Xemingueyning *“Quyosh baribir chiqadi”* romanida antik mifologemalar umuman yo‘q, Bibliya atoqli otlari ham kam (35 ta); mif esa epigraf va syujet strukturasida amalga oshadi. Ikki epigraf (G.Stayn: “Siz hammangiz yo‘qotilgan avlodsiz” va Voiz kitobi 1:4–7: “Bir avlod o‘tadi, boshqasi keladi... quyosh ham chiqadi, quyosh ham botadi”) tarixiy vaqt va tabiatning siklik vaqti o‘rtasidagi qarama-qarshilikni belgilaydi. Romanning markaziy bo‘limi Pamplonadagi San-Fermin bayrami (*fiesta*) ya’ni marosimiy vaqt makoniga aylanadi; *bull* (buqa) leksemasi 314 marta uchrab, korpusdagi eng zich arxetipik obrazga aylanadi; buqa bilan

jang qurbonlik marosimi, yosh matador Pedro Romero (113 marta) esa “sof” marosim qahramoni sifatida tasvirlanadi. Lurdga ketayotgan amerikalik *ziyoratchilar* (“Goddam Puritans”, II kitob, IX bob) epizodi esa diniy ziyoratni kinoyaviy tarzda bayram “ziyorati”ga qarama-qarshi qo‘yadi. K.Beyker ta’kidlaganidek, Xeminguey poetikasining asosi aynan shunday “marosim orqali mif”dir [12].

U.Folknerning *“Shovqin va g‘azab”* romani to‘rt bo‘limdan iborat bo‘lib, ulardan uchtasi 1928-yil Pasxa haftasiga sanalangan: 6-aprel (Xayrli juma – Jeyson bo‘limi), 7-aprel (Muqaddas shanba – Benji bo‘limi) va 8-aprel (Pasxa yakshanbasi – Dilsi bo‘limi); to‘rtinchi bo‘lim 1910-yil 2-iyun (Kventin bo‘limi) sanasini oladi. Shunday qilib, Bibliya mifi (Masihning azobi, o‘limi va tirilishi) romanning kalendar-kompozitsion qolipini tashkil etadi. Bu qolip ichida uch qatlam ishlaydi:

1) ismlar – *Benjamin* (Quentin ongida: «Benjamin the child of mine old age held hostage into Egypt» — Ibtido 42–44 boblariga ishora) va *Jason* (337 marta; oltin junni qidirgan argonavt qahramon nomi Kompsonlar oilasining eng pragmatik va ma’naviyatsiz vakiliga berilgan bu antimif, demifologizatsiya);

2) Kventin bo‘limidagi vaqt mifologiyasi – bobosidan qolgan soat “barcha umid va istaklarning maqbarasi” (*the mausoleum of all hope and desire*) deb ataladi, Avliyo Fransiskning “Kichik singil O‘lim” (*Little Sister Death*) obrazi takrorlanadi;

3) Dilsi bo‘limidagi Pasxa va’zi ya’ni Vahiy kitobidagi “Alfa va Omega” formulasining dialektal varianti. Jeyson bo‘limidagi “*You never resurrected Christ, did you?*” (*Sen Masihni tiriltirgan emassan-ku*?) kinoyasi esa tirilish mifiga nisbatan ikki qutbli munosabatni: Dilsining ishonchi va Jeysonning nigilizmini, qarama-qarshi qo‘yadi [13].

“Mif → transformatsiya → poetik funksiya” tipologiyasi

Kontekstual tahlil natijalari 2-jadvalda umumlashtirildi. Jadvalda har bir asar uchun manba mif, uni matnga kiritish mexanizmi, transformatsiya tipi (K. N. Paranuk va hammualliflar tasnifi bo‘yicha [15]) va yetakchi poetik funksiya ko‘rsatilgan.

2-jadval. Amerika adabiyotida mifologemalar transformatsiyasi va poetik funksiyalari tipologiyasi

Asar	**Manba mif / mifologema**	**Matnga kiritish mexanizmi**	**Transformatsiya tipi**	**Yetakchi poetik funksiya**
Melvill, 1851	Bibliya: Ismoil, Axav, Ilyos, Yunus, Leviafan; antik: Narsiss, Prometey, Persey	Atoqli otlar (nominativ), va’z-epizod, qiyoslash	Remifologizatsiya: personajlar Bibliya prototiplari bilan prefigurativ bog‘lanadi	Qahramon arxetipi (fojiaviy isyonkor), kosmik miqyos yaratish
Eliot, 1922	Grail / Baliqchi shoh, o‘layotgan-tirilayotgan xudo (Frezer, Ueston), Tiresiy	Struktura (reja), muallif izohlari, sitata-montaj	Mifologik metod: zamonaviylik-antiklik paralleli	Kompozitsion qolip; zamonaviy dunyoni “bepoyon sahro” sifatida baholash

Fitsjerald, 1925	“Xudoning o‘g‘li”, Grail, bepoyon sahro (kul vodiysi), “o‘lgan xudo” ko‘zlari	Latent metafora, bir martalik tayanch iboralar	Demifologizatsiya: Amerika orzusi mifi ironik fosh etiladi	Aksiologik baholash; qahramon taqdirining ironik ko‘tarilishi
Xeminguey, 1926	Voiz (siklik vaqt), buqa qurbonligi, fiesta, ziyorat	Epigraf, marosimiy-syujet, arxetipik leksika (bull)	Remifologizatsiya marosim orqali; qisman demifologizatsiya (ziyoratchilar)	Xronotop tashkil etish (marosimiy vaqt); “yo‘qotilgan avlod” uchun tartib modeli
Folkner, 1929	Pasxa haftasi (Masihning o‘limi va tirilishi), Benyamin/Misr, Jeyson-argonavt, Alfa va Omega	Kalendar-kompozitsiya, ismlar, va’z, ichki monolog	Sintetik: remifologizatsiya (Dilsi) + antimif (Jeyson, Kventin)	Kompozitsion qolip + aksiologik qutblanish (ishonch / nigilizm)

MUHOKAMA

Olingan natijalar Amerika adabiyotida neomifologizm genezisini besh bosqichli jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi. *Birinchi (nominativ) bosqich* – Melvill asarida, mifning matnga eng ko‘p kirib kelishi bilan xarakterlanadi: mifologema ism sifatida personajga biriktiriladi, o‘quvchi esa Bibliya syujetini roman syujeti ustiga “qo‘yib” o‘qiydi. Bu usul J.J.Uayt tavsiflagan prefigurativ texnikaning ilk shakli bo‘lib [9], XIX asr Amerika romantizmi (Melvill, Xotorn) uchun xosdir. *Ikkinchi (strukturaviy) bosqich* – Eliot poemasida, mifni leksik yuzadan kompozitsion chuqurlikka ko‘chiradi: Bibliya va antik ismlar zichligi keskin kamayadi, biroq hosildorlik mifi butun poemaning rejasiga aylanadi. Aynan shu bosqichda Eliot “mifologik metod”ni nazariy asoslaydi [2].

Uchinchi (latent) bosqich – Fitsjerald romanida, mifologemalarning eng kam ishlatilishi bilan ajralib turadi, biroq bu mifning yo‘qolishini emas, balki uning “ko‘chirilgan” (N.Fray ta’biri bilan displaced [5]) shaklga o‘tganini bildiradi: mif bir nechta tayanch metaforaga aylanib, butun roman uchun ma’no generatoriga aylanadi. R.Gualberto Valverde ta’kidlaganidek, “Buyuk Getsbi”da bepoyon sahro mifologiyasi Amerikaning o‘z-o‘zini mifologizatsiya qilishiga qarshi kuch sifatida ishlaydi [19]. *To‘rtinchi (marosimiy-siklik) bosqich* – Xeminguey asarida, mifni ismlar va metaforalardan emas, marosim va tabiat sikllaridan quradi; antik mifologemalarning to‘liq yo‘qligi va *bull* arxetipining haddan ziyod ishlatilishi bu bosqichning miqdoriy belgisidir. M.Eliade kuzatgan “siklik vaqtga qaytish” istagi [7] bu yerda tarixiy “yo‘qotilgan avlod” vaqtiga qarshi qo‘yilgan Voiz kitobi sikli orqali ifodalanadi.

Beshinchi (sintetik-kalendar) bosqich – Folkner romanida, oldingi barcha mexanizmlarni birlashtiradi: nominativ (Benjamin, Jason), strukturaviy (Pasxa kalendari), latent (Kventin monologidagi vaqt mifologiyasi) va marosimiy (Shigog va’zi). Bu bosqichda remifologizatsiya va demifologizatsiya bir matn ichida qutblanadi: Dilsi uchun tirilish mifi

haqiqat, Jeyson uchun esa kinoya obyekti, Kventin uchun bu vaqtdan qochish uchun yetarli bo‘lmagan tayanch bo‘ladi. Shuni ta’kidlash lozimki, Jeyson ismining ko‘p uchrashi kontekstual tahlil bu ismning tanlanishi tasodifiy emasligini tasdiqladi. Folkner argonavt-qahramon nomini “oltin jun” o‘rniga pul ketidan quvgan personajga berib, antimif yaratganini tahlillar ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari umumiy qonuniyatni ochib beradi: 1851-yildan 1929-yilgacha mifologemalarning leksik jihatdan foydalanganligi (Bibliya guruhi bo‘yicha) kamaygani sari ularning kompozitsion-strukturaviy yuki ortib boradi. Mif ismdan rejaga, rejadan metaforaga, metaforadan marosim va kalendarga ko‘chadi. Bu qonuniyat E.M.Meletinskiyning XX asr mifologizmi “syujet darajasidan tafakkur darajasiga” ko‘tarilgani haqidagi xulosasiga [1] miqdoriy dalil beradi va I.V.Kuznetsov ajratgan modernizmning “substansional” neomifologizmini [14] aniq matn ko‘rsatkichlarida tasdiqlaydi.

Neomifologizmning keyingi taraqqiyoti XX asrning ikkinchi yarmida ikki yo‘nalishda davom etdi. J.Apdaykning 1963-yilda yozilgan “Kentavr” romani Melvill nominativ usuliga yangi darajada qaytadi: muallif maktab o‘qituvchisi Kolduell va kentavr Xiron o‘rtasidagi parallelni ochiq o‘tkazadi hamda romanga mifologik ko‘rsatkich ilova qiladi [25]. T.Morrisonning “Sevgili” romani esa neomifologizmning yangi shaklini beradi: muallif Yevropa mifologik qatlami o‘rniga afro-amerika xotirasi, qullik tarixi va xalq e’tiqodlarini badiiy mif darajasiga ko‘taradi [26].

XULOSA

Tadqiqot natijalari Amerika adabiyotida neomifologizm genezisi XX asr modernizmidan emas, balki XIX asr o‘rtalaridan, xususan, H.Melvillning “Mobi Dik” romanidan boshlanganini ko‘rsatdi. Mazkur jarayonda 1851–1929-yillar oralig‘ida mifologemalarning leksik zichligi izchil pasayib, ularning strukturaviy-poetik yuki ortib borgan: mif avvalo nominativ birlik sifatida (Melvill), keyinchalik kompozitsion reja (Eliot), latent metafora (Fitsjerald), marosimiy model (Xeminguey) va nihoyat kalendar-kompozitsion qolip (Folkner) sifatida namoyon bo‘lgan. Miqdoriy tahlil har bir bosqichning o‘ziga xos chastota xususiyatlarini aniqlab, Eliot ijodida Grail va hosildorlik guruhining, Xemingueyda *bull* arxetipining yuqori zichligini hamda Folknerda *Jason* obrazi orqali shakllangan “antimif” modelini ko‘rsatdi. Shu asosda Amerika adabiyotida neomifologizmning asosiy poetik funksiyalari qahramon arxetipini yaratish, kompozitsion qolip va xronotopni tashkil etish, zamonaviy voqelikni aksiologik baholash hamda kinoyaviy demifologizatsiyadan iborat ekani aniqlandi. Ushbu funksiyalarning bir matn doirasida sintezlanishi neomifologizm taraqqiyotining yetuk bosqichini belgilaydi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan “mif → transformatsiya → poetik funksiya” tipologik modeli va leksik-chastota metodikasi esa boshqa milliy adabiyotlar, jumladan, o‘zbek nasri materiallari asosida qiyosiy tadqiqotlar olib borishda samarali qo‘llanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мелетинский Е. М. Поэтика мифа. – М.: Наука, 1976. – 407 с.

2. Eliot T. S. Ulysses, Order, and Myth // The Dial. – 1923. – Vol. 75, No. 5. – P. 480–483.

3. Weston J. L. From Ritual to Romance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1920. – 202 p.

4. Frazer J. G. The Golden Bough: A Study in Magic and Religion. Abridged edition. – London: Macmillan, 1922. – 756 p.

5. Frye N. Anatomy of Criticism: Four Essays. – Princeton: Princeton University Press, 1957. – 383 p.

6. Campbell J. The Hero with a Thousand Faces. – New York: Pantheon Books, 1949. – 416 p.

7. Eliade M. Myth and Reality / transl. by W. R. Trask. – New York: Harper & Row, 1963. – 204 p.

8. Barthes R. Mythologies. – Paris: Éditions du Seuil, 1957. – 267 p.

9. White J. J. Mythology in the Modern Novel: A Study of Prefigurative Techniques. – Princeton: Princeton University Press, 1971. – 264 p.

10. Лотман Ю. М., Минц З. Г., Мелетинский Е. М. Литература и мифы // Мифы народов мира: Энциклопедия. В 2 т. Т. 2. – М.: Советская энциклопедия, 1982. – С. 58–65.

11. Wright N. Melville’s Use of the Bible. – Durham: Duke University Press, 1949. – 203 p.

12. Baker C. Hemingway: The Writer as Artist. 4th ed. – Princeton: Princeton University Press, 1972. – 438 p.

13. Brooks C. William Faulkner: The Yoknapatawpha Country. – New Haven: Yale University Press, 1963. – 499 p.

14. Кузнецов И. В. Мифология мифа как фундамент культуры постмодерна // Вестник Кемеровского государственного университета. – 2022. – Т. 24, № 1. – С. 42–49. DOI: 10.21603/2078-8975-2022-24-1-42-49

15. Paranuk K. N., Gutov A. M., Panesh U. M., Stepanova T. M., Unarokova R. B. Myth and Epos in a Modern North Caucasian Novel // European Proceedings of Social and Behavioural Sciences (EpSBS). – 2020. – SCTMG 2020. – P. 3243–3248. DOI: 10.15405/epsbs.2020.10.05.431

16. Мауленов А. А., Калякпар Д. Взаимосвязь мифических мотивов и архетипов в современном мире и казахской неомифологии // Eurasian Journal of Philology: Science and Education. – 2022. – Vol. 186, No. 2. DOI: 10.26577/EJPh.2022.v186.i2.016

17. Pardaeva D. R. Origins and Traditions of Using Myth Poetics in Uzbek Literature // Этническая культура. – 2019. – № 1 (1). – P. 14–18. DOI: 10.31483/r-64080

18. Djalilova U. T. Mifologemalarning o‘zbek asarlaridagi talqini // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2025. – B. 195–197.

19. Gualberto Valverde R. Wasteland Modernism: The Disenchantment of Myth. – València: Publicacions de la Universitat de València, 2021.

20. Melville H. Moby-Dick; or, The Whale [1851]. – Project Gutenberg eBook #2701. – URL: https://www.gutenberg.org/ebooks/2701

21. Eliot T. S. The Waste Land [1922]. – Project Gutenberg eBook #1321. – URL: https://www.gutenberg.org/ebooks/1321

22. Fitzgerald F. S. The Great Gatsby [1925]. – Project Gutenberg eBook #64317. – URL: https://www.gutenberg.org/ebooks/64317

23. Hemingway E. The Sun Also Rises [1926]. – Project Gutenberg eBook #67138. – URL: https://www.gutenberg.org/ebooks/67138

24. Faulkner W. The Sound and the Fury [1929]. – Project Gutenberg eBook #75170. – URL: https://www.gutenberg.org/ebooks/75170

25. Updike J. The Centaur. – New York: Alfred A. Knopf, 1963. – 302 p.

26. Morrison T. Beloved. – New York: Alfred A. Knopf, 1987. – 275 p.